

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM ASOSLARI KAFEDRASI

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI
fanidan

REFERAT

NOROVA FERUZA ELMURODOVNAning

Bakalavriat yo'nalishi: 5141700 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish

Buxoro –2014

MAVZU: TA'LIM TARBIYA MUASSASALARIDA BAYRAM VA OMMAVIY TADBIRLARNI O'TKAZISH

Reja:

1. Ta'lim –tarbiya muassasalarida bayram va ommaviy tadbirlarni o'tkazishning maqsadi va vazifalari
2. Ta'lim –tarbiya muassasalarida bayram va ommaviy tadbirlarni o'tkazishning o'ziga hos hususiyatlari
3. Mavzuli kechalar va ekskurtsiyalarning ma'naviy –ahloqiy tarbiyadagi o'rni va roli
4. Bayramlar va ommaviy tadbirlar o'quvchilarni tarbiyalashning muhim vositasi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda o'tkazilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'quvchilarning, ayniqsa, o'quvchi va o'quvchi-o'quvchilarning, yuksak ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishini taqozo qiladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shunday deyiladi: "Mazkur dasturning maqsadi — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir".

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan ham izohlanadiki, "Har qanday jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo, fuqarolarning ma'naviy-ahloqiy etukligi, ishlab chiqarish salohiyatiga egaligi bilan belgilanadi."

Ta'lim tizimida o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tadqiq etishning dolzarbligi ular bajaradigan funktsiyalar bilan bog'liq. Bu funktsiyalar orasida o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash muhim o'rin tutadi.

Ta'lim muassasalarining aksariyatida madaniy-ma'rifiy tadbirlarga ta'lim va tarbiyaning qo'shimcha vositasi sifatida qaraladi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar ta'lim-tarbiyaning qo'shimcha vositasi funktsiyasini ham bajarishi bilan birga, ta'limning asosiy shakllari: ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar tarkibiga singdirilib, ular bilan uyg'unlashtirilganda ko'proq samaralarga erishiladi. Ayni paytda, madaniy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy salohiyati va ularni ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish metodikasi mamlakatimiz ilm-fanida tadqiq qilinmagan. Shu muammoni hal qilish zarurati mavzuning juda dolzarbligini ko'rsatadi.

Ta'lim –tarbiya muassasalarida bayram va ommaviy tadbirlarni o'tkazishning maqsadi va vazifalari

1997 yil avgust oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim sohasini isloh qilishda poydevor vazifasini bajardi. Bu dasturda mamlakatimizdagi ta'lim tizimini isloh qilishning omillari, yo'nalishlari, maqsad va vazifalari aniq ko'rsatib berilgan.

O'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashga qanchalik muhim e'tibor berilayotgani shunda ham namoyon bo'ladiki, bu vazifa faqatgina ma'lum sinf, kurs yoki bosqichda emas, ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida amalga oshirilishi lozimligi dasturda aniq belgilab qo'yilgan:

"...milliy mustaqillik printsiplari va halqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish".

Har bir halqning kuch-qudrati uning madaniyati va ma'naviyati bilan o'lchanishi haqida gapirib, Prezident I. Karimov shunday degan edi: "sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va er usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir."

Kadrlarni qayta tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan buyon o'tgan qariyb o'n yillik davr Dasturda qo'yilgan maqsad va vazifalar naqadar hayotiyligini ko'rsatdi. O'n yilga ham etmagan davr ichida mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimi vujudga keltirildi. Yuzlab akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari yangidan tashkil etildi. Oliy ta'lim ikki bosqichli — bakalavriat va magistratura tizimiga o'tdi. Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim tizimining har ikki bosqichidagi o'quv rejalari va dasturlari yangidan yaratildi, ta'limga jahondagi eng ilg'or pedagogik innovatsiya texnologiyalari joriy etilmoqda. Ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik hodisa bo'lib, uning natijalari faqat ta'lim

tizimiga emas, balki jamiyat hayotining barcha jabhalariga samarali ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun mamlakatimizning qishloq ho'jaligi, sanoati, qurilish, transport, ijtimoiy soha vakillari ham ta'lim tizimidagi islohotlarga befarq qarab tura olmaydi. Bu sohalarning vakillari ta'limdagi islohotlarga imkoniyat boricha ko'maklashadi. Ayniqsa, madaniy-ma'rifiy muassasalarning hodimlari ta'limdagi islohotlarga barakali ko'mak berishlari mumkin. Bu soha hodimlarining ta'lim tizimiga o'tkazadigan ta'siri bevosita ta'lim-tarbiyaning asosiy shakli bo'lgan darslarning samaradorligida ham sezilishi tayin. Bu ta'sir ta'lim tizimidagi darslar va boshqa mashg'ulotlarda madaniy-ma'rifiy tadbirlardan serunum foydalanish va darsdan tashqari paytlarda o'quvchi-o'quvchilarning ta'lim olishi va tarbiyasiga aloqador bo'lgan tadbirlarni o'tkazish ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar tasnifi

Ilm-fanimizning hozirgi zamondagi dolzarb vazifalaridan biri— o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, milliy g'oyamizni nazariy jihatdan yanada takomillashtirishdan iborat. Hozirgi kunda o'quvchilar ongiga milliy g'oyani singdirish orqali ularning dunyoqarashini, shaxsiyatini shakllantirish dolzarb masaladir.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy, milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Madaniy-ma'rifiy tadbirni o'ziga hos mehanizmlarni hisobga olib o'tkazish orqali o'quvchilarni milliy ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish borasidagi faoliyatimizda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi jihatlariga rioya qilish maqsadga muvofiq:

- Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda yuqori interaktivlikka erishish;
- o'zini o'zi tarbiyalash jarayonini tashkil etish;
- tadbirga kompleks yondashish;
- tadbirning ma'naviy-ahloqiy, milliy, tarbiyaviy ruhda bo'lishi;
- inson va jamiyat manfaatlariga uyg'unligi va h. k.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyadagi ahamiyatini tadqiq etish, avvalo, shu atama va unga turdosh bo'lgan «ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar», «madaniy tadbirlar», «badiiy-ommaviy tadbirlar», «ommaviy tadbirlar», «badiiy tadbirlar» singari atamalarning mazmun doirasi va mohiyatini aniqlashni taqozo etadi. Hozirgi kunda «madaniy tadbirlar», «ma'naviy tadbirlar», «madaniy-ma'rifiy tadbirlar», «ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar» atamaları ko'proq qo'llanilmoqda. Ular bir-biriga juda yaqin, uyqash tushunchalar bo'lib, bir-birini to'ldiradi va shu bilan birga ulardan har biri o'ziga hos jihatlarga ham ega. Bu tushunchalar bir-biriga juda yaqin bo'lib, ular o'rtasida tafovutdan ko'ra umumiylik ko'proq. Ularning barchasini «madaniy tadbirlar» yoki «ma'naviy tadbirlar» deb atash mumkin. Bu atamalarga «ma'rifiy» so'zi qo'shilishi bilan tushunchalarning doirasi biroz torayadi, chunki «ma'rifiy» so'zi tomoshabinlarga bilim berish, dunyoqarashini shakllantirish bilan bog'liq. Madaniy tadbirlarning barchasi ham bilim berish va dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilavermaydi. Masalan, faqat hordiq chiqarish uchun mo'ljallangan tadbirlar madaniy tadbir hisoblanadi, lekin qatnashchilar va tomoshabinlarga bilim bermagani uchun ularni ma'rifiy tadbirlar, deb bo'lmaydi.

“Madaniy tadbirlar deganda, odatlar, marosimlar, tomoshalar, o'yinlar, to'ylar, sayillar, namoyishlar, tantanali kechalar, festivallar, olimpiadalar, dekadalar, yubileylar kabi ko'plab shakllar nazarda tutiladi”.

“Madaniy tadbirlarning asosiy ish shakllari quyidagilardan iborat: ma'ruza, ilmiy va ijodiy konferentsiya, seminar, simpozium, munozara, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy bahslar, dam olish kechalari, mavzuli kechalar, o'tkir zehnlilar bahslashuvlari, teatrlashgan kontsert, ommaviy tomosha, marosim, sayil, bayram, festival, karnaval, ko'rik-tanlovlar, sayohat, madaniy sayr, ekskursiyalar, olimpiada, ko'rgazmalar, yarmarka (ko'rgazma-savdo), qiziqarli o'yinlar, badiiy sport tadbirlari, targ'ibot-tashviqot guruhlar chiqishlari, badiiy havaskorlik to'garaklari uyushmalari va hokazolar.”

Madaniy tadbirlarni o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasalar turli-tuman bo'lib, ulardan har biri muayyan turdagi tadbirlarni o'tkazishga ixtisoslashadi: "Madaniy ishlarni olib boruvchi har bir muassasa o'z mohiyati, hususiyati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'ziga hos shakl-tadbirlardan foydalanadi. Jumladan, drama teatrlari spektakllardan, professional musiqa-cholg'u ansambllari kontsertlardan, o'quv muassasalari dars, leksiya, seminar kabi shakllardan foydalanib, ular orqali o'z faoliyatini olib boradi." Shu fikrni davom ettirib aytish mumkinki, o'quv muassasalarida ham dars jadvali bo'yicha ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha o'tilayotgan mashg'ulotlarda ma'ruza, seminar kabi shakllar bilan chegaralanib qolmasdan, dars jarayonida o'tilayotgan mavzular bo'yicha madaniy tadbirlarning boshqa shakllaridan ham foydalanib, masalan, mavzuli kechalar, o'tkir zehnlilar bahslashuvlari, ilmiy bahslar, munozara, ijodiy uchrashuv, quvnoqlar va zukkolar tanlovlari kabi shakllarni aynan o'tilayotgan kurs mavzulariga bog'lab o'tkazilsa, mashg'ulotlarning qiziqarliligi ortishi bilan birga, ularning tarbiyaviy samaradorligi ham keskin oshadi. Bu usul o'quvchilarning mavzuga qiziqishlarini sezilarli o'stirish bilan birga, mashg'ulotlarning interfaol bo'lishini ta'minlaydi. Mashg'ulotlarning asosiy qismi shunday usul bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bu usul bilan ishlash pedagogdan ilmiy-ijodiy yondashuv, talabchanlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, jonkuyarlikni talab etadi. Shu bilan birga o'quvchi-yoshlarda ham tashabbuskorlik, ijodkorlik, mas'uliyat, tashkilotchilik kabi fazilatlar shakllana boradi.

Mustaqillik yillarida tashkil etilgan "Ma'naviyat va ma'rifat" Kengashi o'z mohiyati, vazifalari, hususiyatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqib, madaniy tadbirlarning qator shakllarini o'tkazdi va bular "ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar" deb ataldi. "Madaniy-ma'rifiy tadbirlar" haqida so'z borganda, madaniy-ma'rifiy muassasalarda, o'quv muassasalarida, madaniyat, san'at muassasalarida, "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashlari tomonidan olib boriladigan, ko'proq aniq ma'naviyat va ma'rifat mavzulariga bag'ishlangan hamda hatti-harakatlar shu mavzu bo'yicha bir maqsadga yo'naltirilgani bilan harakterlanadigan tadbirlarni tushunish mumkin.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar deganda, aholini ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini, dam olishini ko'ngilli o'tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga hizmat qiluvchi tadbirlar tushuniladi.

Jamiyatimizning bugungi hayotida barcha madaniy-ma'rifiy ishlarning yo'nalishi har bir kishi ongiga milliy g'oyani singdirish, barkamol insonni voyaga etkazish, vatanparvarlik, mehr-oqibat, imonu e'tiqodni tarbiyalashga qaratilgan.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni yuqorida qayd etilgan tashkilot va muassasalar ishining bir bo'lagi sifatida, ya'ni asosiy vazifadan tashqari holatda tashkil qilinsa, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, shuni ham qo'shimcha qilgan holda ta'kidlash lozimki, bu tadbirlar o'quv yurtlari pedagog-o'qituvchilari ishining asosiy qismi, asosiy vazifasi sifatida qaralib, ular bevosita bajarishi zarur bo'lgan asosiy funktsiyalaridan hisoblanishi lozim. Chunki, ta'lim jarayonida faqatgina ma'ruza o'qish, seminar o'tkazish kabi shakllar bilan cheklanilsa, bir tomondan, mashg'ulotlar zerikarli bo'lib qolsa, ikkinchi tomondan, ta'lim jarayonining tarbiyaviy jihatida oqsab qolishi mumkin. Ta'lim jarayoniga quvnoqlar va zukkolar tortishuvlari, ilmiy bahslar, munozara, ijodiy uchrashuv, mavzuli kecha singari madaniy-ma'rifiy tadbirlarni jalb etish mashg'ulotlarning juda qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga ularning tarbiyaviy jihatdan yuqori samarali bo'lishiga ham ko'maklashadi. Bu esa mazkur tadbirlar ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash bilan birga ularning har ikkisi ham yuqori samarali bo'lishiga xizmat qilishini anglatadi.

Pedagoglar o'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning bilimdonligini oshirish va ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash maqsadida tarbiyaviy va madaniy-ma'rifiy ishni uzviy holda tashkil qilishlari talab etiladi. Ta'lim muassasalarida olib boriladigan madaniy-ma'rifiy ish aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonga singib ketgan bo'lishi lozim.

O'quvchilarni qanday qilib ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash kerakligini aniq rejalashtirmay turib, ular orasida bu boradagi tarbiyaviy ishni samarali olib borib bo'lmaydi. Bu borada ish olib boradigan har bir pedagog shu tarbiyaning mohiyati, usullari, shakllari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi nima? Ma'naviy-ahloqiy tarbiya faoliyatining maqsadi muayyan ijtimoiy tuzum g'oyalari va milliy-ahloqiy mezonlarga asoslanib mahsus tashkil etilgan ta'sir jarayonida shakllanayotgan kishining qanday bo'lishi haqidagi tasavvurlarni hayotga tadbiq etish jarayoni, deb aytish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya uning yo'nalishini belgilaydi.

Mustaqillik davrida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni O'ZR Oliy Majlisining 1997 yil IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida amalga oshirish, zamon talabiga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ulkan va mas'uliyatli ishdir. Barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi hukumatimiz tomonidan ta'lim tizimi oldiga muttasil va muntazam tarzda davom etadigan dolzarb masala qilib qo'yildi.

Barkamol avlodni tarbiyalash tarkibi negizidan ma'naviy-ahloqiy tarbiya ham asosiy o'rin olgan.

O'qituvchi-o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi va milliy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda va ularning dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta. Ta'lim tizimida bu fanlar bilan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning uzviy bog'liqligini uyushtirgan holatda muntazam olib borishni tashkil qilish usuli bilan tarbiyaviy yo'nalishda yanada yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning mazmuni milliy ma'naviy-ahloqiy, diniy qadriyatlarimiz, milliy madaniyatimiz, ma'naviy merosimiz, sharqona ahloq kategoriyalaridan iborat bo'lgandagina tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bu tarbiyaning mazmunini milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari — vatan ravnaqi, yurt tinchligi, halq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik,

millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tashkil etadi. Bu jarayonda ahloq quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- “kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- kishilar faoliyatining insonparvar qadriyatlari va mo'ljallarini belgilab berish;
- shahsni ijtimoiylashtirish” ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kundalik turmushda, faoliyatimizda milliy, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarimizga amal qilinadi. Bu qadriyatlarimiz esa milliy madaniyatimizning asosini tashkil etadi.

G'oyaviy-ahloqiy tarbiya bilan ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning o'rtasidagi umumiylik shundan iboratki, milliy g'oyamiz milliy qadriyatlarimiz tizimidan iborat va shu milliy qadriyatlarimiz milliy ma'naviyatimizni ifodalaydi.

“Ma'naviyat — tarbiyaning eng ta'sirchan quroli. Ahloq — ma'naviyatning o'zagi. Ahloq — bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson tarbiyasi haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanlar.”

G'oyaviy-ahloqiy tarbiyada ko'proq mafkuraviy ta'sir o'tkazishga e'tibor qaratiladi. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyada esa ahloq bilan ma'naviyat mezonlariga asoslanib, ko'proq ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun ta'sirni kuchaytirishga e'tibor qilinadi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchi-o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda yuqori samaradorlikka erishish uchun, bu tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyaviy ta'sirga alohida e'tibor berish hamda o'zini o'zi tarbiyalash jarayoni kechishiga undaydigan mehanizmlarni ishga solish lozim.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashda o'quvchilarning fazilatlarini rivojlantirish va kundalik odatlarni ijobiy tomonga o'zgartirishga undaydigan ehtiyojlar asosiy mazmun kasb etadi. Bu ehtiyojlar haqida so'z borganda, milliy istiqlol mafkurasi, milliy, ma'naviy-ahloqiy, insonparvar qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning yuqori tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun pedagog bu tadbirlar orqali milliy istiqlol mafkurasi bajarishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarga asoslanishi va shu vazifalarni bajarishni maqsad qilib olishi hamda bunga erishish uchun zarur muhit yaratishi lozim.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qiluvchi pedagog o'quvchilarda o'zini o'zi tarbiyalashni yo'lga qo'yishi uchun ularga istiqbolni aniq ko'ra bilishlarida, unga erishish yo'llarini izlab topishda, yuksak ideallarga ega bo'lishlarida yordam berishi va imkoniyat yaratishi lozim. Bu borada pedagog madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchilarda halqimizning quyidagi milliy hususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutishi kerak:

- “halqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-ko'y, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga— hurmat va kichikka — izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi — ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo.”
- Shuningdek, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilishda va o'tkazishda pedagog quyidagi umumbashariy qadriyatlarga asoslanib stsenariylar yaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilar:
- “qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hurfiylik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;

- o'zga halqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hokazo."

Ta'lim tizimida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

1). **Bevosita ta'lim jarayonida o'tkaziladigan tadbirlar.** Ularga madaniy tadbirlarning ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot kabi dars shakllarida foydalaniladigan turlari kiradi. Tadbirlarning bu turidan foydalanilganda dars mashg'ulotlari davomida monologlardan, instsenirovkalardan, badiiy asarlardan, video va audio yozuvlaridan parchalar keltiriladi Bu tadbirlar o'rganilayotgan predmet, kurs yoki fanni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga bu tadbirlar o'quvchilarga dars jarayonida qisqa muddatli hordiq berish funksiyasini ham bajarishi mumkin.

2). **Darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlar.** Ularga mavzuli kechalar, o'tkir zehnlilar bahslashuvlari, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy bahslar, dam olish kechalari, munozara, ilmiy va ijodiy konferentsiya, teatrlashtirilgan kontsert, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko'rik-tanlovlar, sayohat, ekskursiyalar, olimpiada, ko'rgazmalar, qiziqarli o'yinlar, badiiy-sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to'garaklari mashg'ulotlari va boshqalar kiradi.

"O'quvchi ahloqiy madaniyatini shakllantirishda sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fahriylari bilan o'tkaziladigan uchrashuvlar, kitobhonlar konferentsiyalari, ko'rik-tanlovlar, bayram kechalari kabilarning ahamiyati kattadir. Chunki o'quvchi shahsi ana shunday tadbirlarda shakllanadi, voyaga etadi, kamol topadi." Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning bu ikki turi bir-biridan faqat o'tkaziladigan vaqti bilangina farqlanmaydi. Ularning maqsadlari ham turlicha. Mashg'ulotlar jarayonida o'tkaziladigan tadbirlarning maqsadi shu mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglash, yahshiroq eslab qolishga hizmat qilishdir. Masalan, "O'zbekiston tarihi" fani bo'yicha "O'zbekistonda milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi" mavzusini o'rganishda 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qilayotgani, deputatlarning bu

taklifni o'rinlaridan turib, uzoq olqishlar bilan kutib olgani videotasvirini namoyish qilish o'quvchilarga kuchli emotsional ta'sir o'tkazadi va ushbu mavzuni yahshi anglashlari va eslab qolishlariga ko'maklashadi.

Darsdan bo'sh vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlar o'quv rejasidagi muayyan bir mavzuga emas, balki barcha guruhlar, fakultetlar, kurslar uchun umumiy bo'lgan yo'nalishda o'tkaziladi. Bular jumlasiga mavzuli kechalar, o'tkir zehnlilar bahslashuvlari, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy bahslar, dam olish kechalari, munozara, ilmiy va ijodiy konferentsiya, teatrlashtirilgan kontsert, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko'rik-tanlovlar, sayohat, ekskursiyalar, olimpiada, ko'rgazmalar, qiziqarli o'yinlar, badiiy-sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqalar kiradi. Bu tadbirlarda ko'ngil ochish ko'proq o'rin egallaydi. Lekin, odatda bu tadbirlarda mazkur o'quv yurti hususiyatlari, yo'nalishi ham muayyan darajada aks etadi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar muayyan qadriyatlarni targ'ib qilish va yoshlar ongiga singdirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ma'fura nuqtai nazaridan bunday tadbir qatnashchi va ishtirokchilarni muayyan faoliyatga undashdan iborat. Bunday faoliyat jamiyatda shakllangan ijtimoiy me'yor va ustanovkalar doirasida yuz beradi. Sodaroq qilib aytadigan bo'lsak, madaniy-ma'rifiy tadbirlar negizida ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan g'oyalar mavjud.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning ruhiy-emotsional ta'siri juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, ular markazida ijtimoiy fasilatsiya, empatiya va induksiya hodisalari mavjud bo'ladi. Fasilatsiya hodisasini o'tgan asr boshlarida amerikalik olimlar ilmiy iste'molga kiritgan bo'lib, bu hodisa tomoshabinlarning mavjudligi ishtirokchilarga o'ziga hos ruhiy ta'sir o'tkazishi bilan bog'liq. Amerikalik psiholog U. Ollport XX asrning 20-yillarida velopoygachilarni kuzatib turib, qiziq bir holatga guvoh bo'ladi. Velopoyga o'tayotgan yo'lning ikki chekkasi o'rmon, dala va qishloqlardan iborat edi. Velopoygachilar har bir qishloqqa yaqinlashganda, ularning tezligi sezilarli darajada oshishi ma'lum bo'ldi. Amerikalik psiholog bu hodisani "ijtimoiy fasilatsiya" deb atadi. Poygachilar tezligining qishloqqa yaqinlashganda oshib borishi qishloq aholisining

poygachilarni tomosha qilishga chiqishi bilan bog'liq ekanligi shubhasiz edi. Biz ham ana o'sha holatlar asosida bir qator aktyor va san'atkorlar bilan suhbatlar o'tkazdik. Kuzatish va suhbatlarimizda ma'lum bo'ldiki, zal tomoshabinlar bilan liq to'la bo'lganda, aktyorlar alohida ilhom bilan rol o'ynashar ekan. Zalda tomoshabinlar oz bo'lganda esa, aksincha aktyorlarning ilhomi biroz pasayar ekan. Bundan tashqari, zalda tomoshabinlarning ko'p bo'lishi faqat sahnadagi aktyorlarga emas, zaldagi tomoshabinlarning o'zlariga ham ta'sir qilar ekan. Shu tariqa, tomoshabinlarning ruhiy holati, kechinmalari bir-birlariga "yuqar" ekan. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida ham huddi shunday holat kuzatiladi.

Mavzuli kechalar va ekskursiyalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyadagi o'rni va roli

Milliy istiqlol g'oyasi va uning hayotdagi in'ikosini targ'ib qilishga bag'ishlangan mavzuli kechalar. Bu mavzu respublikada madaniy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Zero, hozirgi kunda milliy istiqlol g'oyasini ommaviy o'rganish ijtimoiy faollikni oshirishning muhim manbai hisoblanadi. Mavzuli kechalar milliy istiqlol g'oyasining, jumladan, o'quvchilarning amaliy faoliyatida hayotga qanday tadbiriq etilayotganini ochib beradi, mustaqillik davri turmush tarzining real imkoniyatlarini ko'rsatadi, milliy qadriyatlarni, milliy madaniyatni, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalmilallikni targ'ib qiladi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, halq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikka bag'ishlangan mavzuli kechalar yoshlar dunyoqarashini shakllantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, mehnat va madaniy hayotining kundalik voqea-hodisalariga bag'ishlangan mavzuli kechalar. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning bu mavzu yo'nalishi oliy o'quv yurtlari faoliyatini butun mamlakat taqdiri, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, respublika, viloyat, tuman, muayyan jamoa hayoti bilan chambarchas bog'laydi.

Prezidentimizning ijtimoiy-madaniy sohadagi farmonlari, qarorlarini bajarishda halqimiz qo'lga kiritgan yutuqlarini, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam yoritib borish mavzuli kechalarning ushbu yo'nalishida markaziy o'rinni tutadi. Bu kechalarda doimo mehnat, kundalik turmush, har kungi ishlarimiz, voqeligimizdagi sifat o'zgarishlari solnomasi namoyish etiladi. Ma'naviyat va madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlarni eks ettirish ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, milliy madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklashdagi muammolar, kundalik hayotimizda sodir bo'layotgan milliy qadriyatlarimizga havf solayotgan voqea-hodisalarni tanqidiy yondashuv bilan aks ettirish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

2. Milliy iftihorimiz, yoshlarga ibrat bo'lgan buyuk allomalarimiz, olimlarimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan mavzuli kechalar. Bu yo'nalishdagi kechalarning markaziy qahramonlari — tarixiy shahslar va hozirgi hayotimizda biz bilan hamnafas yashayotgan ulug' mutafakkir, olimlar, hizmatchilar va milliy qahramonlarimizdir. Bu tadbirlar ijtimoiy-siyosiy voqealar, mehnat g'alabalarining qo'lga kiritilishi — mukofotlar topshirish, yubileylarni nishonlash, mehnatda ulkan yutuqlarga erishish, harbiy jasoratlar, muhim ilmiy kashfiyotlar, yangi sport rekordlari munosabati bilan uyushtiriladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, u yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu maqsadga o'quvchilarning Vatan tarihiga qiziqishlarini, o'lka tabiatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, shu o'lkada yashayotgan odamlarga, halq an'analari, urf-odatlari, marosimlariga hurmat, Vatanni himoya qilishga doimo tayyor bo'lish hissini tarbiyalash orqali erishiladi. Vatanparvarlik tarbiyasining sanab o'tilgan yo'nalishlaridagi madaniy-ma'rifiy ishlarni muzeylar vositasida amalga oshirish mumkin.

Muzeylardan o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun foydalanishning qulayligi yana shunda ham ko'rinadiki, mamlakatimizdagi barcha viloyatlarda, ko'pchilik tuman va shaharlarda turli yo'nalishdagi muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda ochilgan akademik litseylar va kasb-hunar

kollejlarning kattagina qismi tumanlarda joylashgan. Ana shu litsey va kollejlarning o'quvchilarini oldindan puhta ishlab chiqilgan reja asosida muzeylarga ekskursiyasini uyushtirish vatanparvarlik tarbiyasida yahshi samaralar beradi.

Qishloq muzeyi tarixiy-madaniy ob'ekt bo'lib, ko'pgina funktsiyalarni bajaradi. Unda aholi o'zi yashayotgan o'lkaning tarixi, an'analari, ota-bobolarining udumlari, kiyimlari, hayoti va kurashlari to'g'risida ma'lumot oladi. Muzeylar shu hududning o'tmishi va hozirgi kunini o'rganishda o'ziga hos maktab vazifasini bajaradi.

Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tadbirlarda o'quvchi va o'quvchilarning iqtisodliklaridan tashqari, mamlakat hayotida dolzarb bo'lib turgan masalalarga ham e'tibor qaratish muhim. Ana shunday masalalardan biri — yoshlarda diniy bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirishdir. Milliy istiqlol g'oyasi tarkibidagi asosiy tushunchalardan biri diniy bag'rikenglik (tolerantlik) g'oyasidir. Bu g'oya ham Konstitutsiyadagi huquqiy me'yorlarga asoslanadi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 31-moddasida shunday deyilgan: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi». Hamma uchun vijdon erkinligining kafolatlanishi jamiyatda diniy bag'rikenglik qaror topishini taqozo qiladi. Chunki, diniy bag'rikenglik qaror topmasa, jamiyatda vijdon erkinligi ta'minlanishi amri mahol bo'ladi. SHundan hulos qilish mumkinki, milliy istiqlol g'oyasining diniy bag'rikenglik haqidagi qismi to'laligicha Konstitutsiyaning ana shu yuqorida keltirilgan moddasiga asoslangan.

Bayramoldi tadbirlarni o'tkazish uchun joy tanlash va tegishli tarzda bezashga ham alohida e'tibor berish zarur. Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali majlis o'tkaziladigan zal bayramona tusda bezatilgan bo'lishi kerak. Sahnaning to'rida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kitobi muqovasining tasviri bo'lishi, Konstitutsiyaning tegishli moddalaridan ko'chirmalar yozilgan bo'lishi, davlat ramzlari aks ettirilgan suratlar ilib qo'yilishi alohida ahamiyatga ega.

Tantanali majlisda faqatgina ta'lim muassasasi rahbarining ma'ruzasi bilan cheklanmay, professor-o'qituvchilar, o'quvchi va o'quvchilar vakillarining chiqishlarini tashkil qilish ham zarur.

Konstitutsiya kunini nishonlash o'quvchi va o'quvchilarning huquqiy ongini kengaytiradi va ma'naviyatini boyitadi. Lekin, Konstitutsiya kunini bayram qilishdan faqatgina o'quvchilarning huquqiy tarbiyasi yo'nalishida emas, vatanparvarlik tarbiyasi yo'nalishida ham samarali foydalanish mumkin. Milliy g'oyamizning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda bu bayram ulkan yordam berishi mumkin. Yuzaki qaraganda, O'zbekiston Konstitutsiyasi bilan milliy istiqlol g'oyasi o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'qday tuyuladi. Hattoki, milliy istiqlol g'oyasi Konstitutsiyamizning "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas",- deyilgan 12-moddasiga mos kelmayotganday tuyulishi ham mumkin. Aslida esa, bunday tasavvur Konstitutsiya bilan ham, milliy istiqlol g'oyasi bilan ham faqat yuzaki tanishish natijasida paydo bo'lishi mumkin. Konstitutsiyamizning 12-moddasidan yuqorida keltirilgan parcha davlatning rasmiy mafkurasi bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, biroq u jamiyatni birlashtiruvchi mafkura, g'oya bo'lishiga monelik qilmaydi. Aksincha, Konstitutsiyamiz fuqarolarni irqi, millati, dini, kasbi, jinsi va boshqa belgilariga qarab bo'lib tashlashga yo'l qo'ymaydigan, jamiyatni birlashishga chaqiradigan g'oya va mafkuraning yaratilishini taqozo qiladi.

Mamlakatning huquqiy tayanchi bo'lgan Konstitutsiya va halqning orzu-umidlarini ifodalaydigan milliy istiqlol g'oyasi o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi hujjatlardir. Bunga Konstitutsiyaning moddalari va milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalarini chuqurroq tahlil qilib, qiyoslab ko'rsak, ishonch hosil qilishimiz mumkin.

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasining So'zboshi qismida Prezidentimiz shunday satrlarni bitgan edi: “Istiqlol mafkurasi ko'p millatli O'zbekiston halqining ezgu g'oya — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi”. Konstitutsiyamizning 4-moddasida esa, “O'zbekiston Respublikasi

o'z hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi", - deyilgan.

Konstitutsiyadan va Prezident "So'z boshi"sidan keltirilgan bu iqtiboslarning naqadar uyg'unligi shundoqqina ko'zga tashlanib turipti.

El-yurt tinchligi, halq farovonligi, Vatan taraqqiyoti milliy istiqlol g'oyasining maqsadlarini ifodalasa, Konstitutsiyamizning 4-moddasidan yuqorida keltirilgan parcha shu maqsadlarga erishish uchun huquqiy asos yaratgan.

Konstitutsiya kunini nishonlashning vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari bu bilan ham cheklanmaydi. Bizning bir qator kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida o'tkazgan kuzatishlarimiz Konstitutsiya kunini nishonlash bu muassasalarda Konstitutsiyani madh etish, uning moddalarini o'qish, Konstitutsiyaga bag'ishlangan she'rlarni ifodali o'qish va qo'shiqlar aytish bilan cheklanayotganini ko'rsatdi. Bunday bayram va tantanali yig'ilishlarda Konstitutsiyaga zid hatti-harakatlar va uni buzish hollari to'g'risida so'z yuritilmaydi. Aslida ana shunday hollarni tahlil qilishdan ham o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanish mumkin.

Vatanparvarlik tushunchasi mazmunining hozirgi kunda boyib, yangi qirralar kashf qilgani shunda ham ko'rinadiki, avvallari qo'lda qurol bilan Vatanni dushmandan himoyalash asosiy vazifa hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda Konstitutsiya me'yorlarini hayotga og'ishmay tatbiq qilish, uni va mamlakatning boshqa qonunlarini qonunbuzarlardan himoyalash asosiy vazifa deb tushuniladi. Yoshlar ongiga, barcha fuqarolar ongiga Konstitutsiya, mamlakat qonunlarini buzuvchilar Vatan mustaqilligiga, istiqlolga tahdid soluvchilar ekanini singdirish milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qiluvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Konstitutsiyamiz moddalarini, Vatanimiz qonunlarini buzayotgan odam, kim bo'lishidan qat'iy nazar, istiqlolimizga bolta urishga intilayotgan shahsdir.

Buni tarix birnecha marta isbotladi. Namangan voqealari, Fevral voqealari, 2004 yil mart oyidagi Toshkent va Buhorodagi qo'poruvchilik va 2005 yil may oyida Andijon shahrida bo'lib o'tgan ig'vogarlikka urinishlarning ishtirokchilari

bo'lmish "hizbut tahrir"chilar, akromiylar, o'zlarini turli "jamoat"larning vakillari deya ko'rsatayotgan kimsalar Konstitutsiyamiz va milliy istiqlol g'oyamizning asosiy tamoyillaridan bo'lgan diniy bag'rikenglik tamoyilini oyoqosti qilmoqchi bo'ldilar. Ularning Konstitutsiyamiz va milliy istiqlol g'oyamizga qarshi harakatlari, ayni paytda Vatanimizga, uning osoyishtaligi va barqaror rivojiga qarshi qaratilgan harakat edi. Mana shu haqiqatni yoshlarga ta'sirchan qilib ochib berilsa, ularning Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ulari jo'sh uradi, mustahkamlanadi.

Bayramlarning o'quvchi-yoshlarga o'tkazadigan ma'naviy-ahloqiy ta'siri shu tadbirlarning ularga qanchalik yoqqani yoki yoqmaganiga bog'liq ekanini nazarda tutib quyidagicha tajriba o'tkazdik.

Bayram tadbirlarida ishtirok etgan o'quvchi-yoshlarga "Siz bayram tadbirini tayyorlashda ishtirok etdingizmi yoki yo'qmi?", "Sizga o'tkazilgan tadbir yoqdimi yoki yoqmadimi?" degan savollar bilan murojaat qildik. O'tkazilgan bu tajribamiz ham mavzuli kechalar haqidagi tajribaga yaqin natijalarni ko'rsatdi.

"Quvnoqlar va zukkolar klubi" ko'rik tanlovi o'quvchilarning ma'naviy barkamol va puhta bilim egasi, etuk mutahassis bo'lib etishishlari va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish kabi ezgu ishlarni amalga oshiradi.". Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarining tarbiyaviy salohiyatini ta'minlaydigan muhim psixologik hususiyat shundan iboratki, ular yoshlar o'rtasida musobaqa, tortishuv, raqobatni rivojlantirish orqali bilim olishga bo'lgan intilishni kuchli rag'batlantiradi. Tortishuvda qatnashadigan jamoalarning a'zolari musobaqaga tayyorgarlik ko'rish bosqichida belgilangan mavzu bo'yicha atroflicha bilim to'plashga harakat qiladilar. Tortishuv mavzulari, odatda, o'quvchi-yoshlar olayotgan ihtisoslik bilan bog'liq ekanini nazarda tutsak, bu tadbir o'quvchilarning kasbiy o'sishlarini va etuk mutahassis bo'lishlarini ta'minlashda qanchalik muhim rol o'ynashini tasavvur qilish qiyin emas. Bundan tashqari, tortishuv jarayonida murojaat qilinadigan ma'naviy, ahloqiy, estetik masalalar ishtirokchilarning ma'naviy-ahloqiy rivojiga kuchli turtki beradi.

“Quvnoqlar va zukkolar klubi” uchrashuvlarining tarbiyaviy imkoniyatlari tortishuvlardan ko’zda tutiladigan asosiy maqsad va vazifalar bilan bog’liq. Bu maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- “O’quv yurtlari yoshlarining qiziqishlarini muvofiqlashtirgan holda qiziqarli dasturlar tayyorlash va keng omma o’rtasida namoyish qilish;
- Yoshlar muammolarini, kamchilik va nuqsonlarini yumoristik va satirik janrlar orqali ko’rsatib berish;
- Ularni turli mavzular yuzasidan tezkor fikr yuritishga moyillash;
- Qaysi doirada bo’lmasin shahsiy fikr bildirish uchun o’ziga hos zamin hozirlash;
- O’quvchilarning zukkolik xususiyatlarini shakllantirish;
- O’quvchilarning nutq madaniyatlarini o’stirish borasida ham ijobiy natijalarni qo’lga kiritish;
- O’quvchilarning bo’sh vaqtlarini ko’ngilli o’tkazish;
- O’quvchilarni maroqli dam olishlari uchun qiziqarli dasturlar bilan chiqishlar qilib, ularning bu sohadagi iste’dodlarini o’stirish.”.

Quvnoqlar va zukkolar bellashuvlarining tarbiyaviy samaradorligi ko’p jihatdan mavzu tanlanishiga bog’liq. An’anaga ko’ra, bellashuv mavzusini tashkiliy qo’mita belgilaydi va tortishuvga taklif etilgan jamoalarni tanlangan mavzu bilan kamida yigirma kun oldin tanishtiradi. Mavzu bilan jamoalarni ikki-uch, to’rt oy oldin ham tanishtirish mumkin. Lekin, jamoalar mavzu bilan bir necha oy oldin tanishtirilsa, ular “hali vaqt ko’p-ku”, degan kayfiyatga tushib qoladilar. Shuning uchun jamoalarni mavzu bilan bir-bir yarim oy avval tanishtirish, bizningcha optimal muddat hisoblanadi. Shu muddat davomida raqib jamoalarning a’zolari belgilangan mavzu bo’yicha imkon boricha ko’proq ma’lumot to’plashga intiladi. Buning uchun ular kitoblar, darsliklar, qo’llanmalar, gazeta va jurnallar o’qishi, mutahassislarga murojaat qilishlari kerak. Bu jarayonda ularning kasb bo’yicha bilimlari oshadi, malaka va ko’nikmalari rivojlanadi, dunyoqarashlari kengayadi.

Tortishuv tarkibiga kiritilgan musiqiy salomlashish, musiqiy tabriklar va boshqa musiqiy nomerlar ishtirokchilarning estetik didi o'sishiga xizmat qiladi.

Darsdan tashqari ta'limni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, Respublika hududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog'ini kengaytirib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh, qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Hozirgi paytda yangi pedagogik va a hborot te hnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormokdalar. Shuning bilan birga bu, bir joyda to' htab turuvchi jarayon emas. Ushbu «Talablar» barcha o'quv maskanlaridan tashqari ta'lim muassasalari o'quv - tarbiyaviy ishini rejalashtirishda dastur va uslubiy materiallar, metodik qo'llanmalar, o'qyv adabiyotlarini tayyorlashda muhim hujjat bulib xizmat qiladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarining tugarak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy a hloqiy fazilatlar mujassamlashgan bulishi kerak.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari tugarak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlaridan habardor qilib turish ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o'rin tutadi. Tugarak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bulishi, ular Davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni bilishi shart. O'quvchilar qaysi tugarakka qatnashishidan qat'iy nazar shu kasb yoki hunar to'g'risida boshlang'ich ko'nikmalarga zga bulishi lozim.

Darsdan tashqari ta'lim o'quvchilar qiziqshiga, hohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarida o'qyv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yunalishlar buyicha tugarak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi.
2. Estetik ta'lim.
3. Sayyohlik yunalishi buyicha tugaraklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi buyicha.
5. O'quvchilarni ma'naviy, a hloqiy yunalish buyicha.
6. Huquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha.

7. Teknik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha.
8. Iqtidorli va iste'dodli yoshlar.
9. Iqtisodiy ta'lim.

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarning shakllari.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari oldida turgan muhim tarbiyaviy faoliyati bu yoshlarga estetik, ekologik, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'hash boshqa turdagi tarbiyaviy ishlarni o'rgatishdan iboratdir. Tarbiyaning ushbu turlarini yosh avlodga singdirish uchun avvalo muassasada utkaziladigan o'quvchilar his – tuyg'usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirlarda, tugaraklar faoliyatida milliy madaniy-tarhiy an'analarga, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Masalan estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish maqsadda o'quvchilar uylari, saroylari, shahslar va usmirlar ijodiyot uylarida doirachilar, paqc, vokal-cholg'u, folklor, maqom, karnay-surnaychilar, ashula va paqc, uzbek xalq cholg'u dastalari, hor studiyasi, qo'g'irchoq teatri, drama tugaragi, san'at sevarlar klublari tashkil etadi.

Tugarak a'zolari ushbu dasta, tugarak va klublarda san'atni sevishga, ardoqlashga, san'at orqali go'zallikni kura bilishga, shu go'zallik orqali uz ona yurtini ulug'lashga, undagi go'zallikni, chiroyni asrab qolishga intiladi.

Estetik yo'nalish buyicha tahsil olgan tugarak a'zolari quyidagilarni bilishi lozim:

- raqs san'atining mashhur namoyandalari hayoti va ijodini;
- kuy tinglash, uning mohiyatini tushunib paqc harakatlari orqali ifodalashni;
- turli millat va elatlar raqslari harakatlarini, uni ijro etishni;
- doiraning yaratilish tarihini, uning kekxa namoyandalari ijodiy yo'lini, doirani ushlash qoidalarini;

Shuningdek, estetik ta'lim tasviriy va halq amaliy san'ati yo'nalishlaridagi tugaraklar mashg'ulotlari orqali ham o'quvchilar qalbiga singdiriladi. Bu o'rinda o'quvchilar uylari, saroylarida tashkil etilgan«Tasviriy san'at», «haykaltaroshlik», «Kulolchilik», «Milliy kashtachilik», «Naqqoshlik», «yog'och o'ymakorligi»,

«Ganch o'ymakorligi», «Yosh ta'mirlovchilar» tugaraklari ayni maqsadni doimiy va uzluksiz amalga oshiradi.

Sayyohlik tugaraklariga o'quvchilar ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda keng jalb qilinadi.

To'garakka qabul qilinayotgan o'quvchi yoshlar avvalo sayyohlik tugaraklarining biror bir yunalishiga qiziqqan, sayyohlik ekspeditsiyasi to'g'risida tasavvurga ega bulgan, sog'lom bo'lishi kerak.

Sayyohlik yo'nalishi bo'yicha qatnashadigan o'quvchilar birinchi o'quv yilidan keyin quyidagilarni bilishi lozim:

- yurtimiz haqida tasavvurga ega bulishi;
- yurtimizning tari hini, qadimiy obidalarini, ular haqidagi afsona va rivoyatlarni bilishi;
- ma'lum joy, ulkani o'rganish bo'yicha reja va yunalishlarni ishlab chiqish;
- sayohat davomida kuzatuvchanlikni bilish, sayyohlikka oid materiallarni o'rganish;
- turli hildagi sayyohlikka oid adabiyotlar bilan doimiy tanishib borishi va ularni bilish kerak.

Ekologik tabiatshunoslikdan tashkil qilingan tugaraklarning asosiy maqsadi yoshlarda jonli va jonsiz tabiat haqida ya hlit tasavvur hosil qilish, tarbiyalanuvchilarni usimlik va hayvonot olami bilan tanishtirish. Tugarak a'zolarida usimlik va hayvonlarni himoya qilish kerakligi to'g'risida tasavvur hosil qilish, tugarak a'zolari o'quv bilim yurtilarida er maydonlarida va tirik tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarni parvarish qilgandagina, ya hshi hosil olish mumkinligiga ishonch hosil qilishdan iboratdir.

To'garak a'zolariga birinchi o'quv yili o hirida quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

- jonli va jonsiz tabiat haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- jonli va jonsiz tabiatni bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini;
- yoz, kuz, qish va bahorning harakterli belgilarini;
- yilning turli fasllarida odamning yashab turgan joyidagi mehnati va

ularning turlarini;

- usimlik nomlari, ildiz, poya, barg, meva va urug'larini;

- ut usimliklar, dara htlar nomini;

- meva va manzarali dara htlarni aa ularning bir biridan farqlarini

- uchib ketuvchi va qishlovchi qushlarning hayoti va hususiyatlarini;

- tabiat bilan inson orasidagi qonun-qoidani doimo muvozanatda saqlashni bilgan, kuzatgan ishlari yuzasidan hisobot yoza bilishni, ma'ruza qilishni bilishlari kerak.

Ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limning barcha yo'alishlari va tugaraklaridagi o'quvchilarning ma'naviy fazilatlari, boy madaniy merosimiz, tarihiy an'analarimizga, umuminsoniy k,adriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqlool g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanishi bilan belgilanadi.

O'quv bilim yurtlaridan tashqari ta'lim muassasalari klub va tugaraklari boradilar. Bilimga tashnalik ham a hloqiy tarbiyaning tarkibiy qismidir tarbiyachi, muassasa hodimlari o'quvchi qalbida kitobni sevish, uni o'qish va ardoqlash kabi fazilatlarni doimiy ravishda shakllantiradilar.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, klub va tugaraklar faoliyatida - Vatanga muhabbat va komilinson tarbiyasi aks etishi lozim. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tarihi, muayyan davrlardagi mavqei, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o'rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to'g'pisida ma'lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg'urish iymon-e'tiqod ramzi ekanligi o'qtiriladi. Shu nuqtai nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.

O'quvchilarning hququqiy ongini oshirmasdan huquqiy fuqarolik davlatni tasavvur etib bulmaydi. huquqiy ong poydevoriga o'quv muassasasilarida asos solinadi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilarga huquqiy bilimlar, ijtimoiy hayot me'yorlari va qoidalari to'g'risida keng ma'lumotlar berib boriladi.

Huquqiy ta'limning mazmuni mustaqil O'zbekiston davlatining iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy-huquqiy manfaatlarini uzida mujassamlashtirishi kerak.¹

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida iqtidorli shahslar va iste'dodli yoshlarni uziga hos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olib turli tugaraklarga jalb etish «Respublika iste'dod markazi» hodimlari bilan hamkorlikda va ularning ilmiy amaliy tajribalaridan foydalangan holda iste'dodlarin aniqlashga muljallangan texnologik diagnostik tadbirlar asosida amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida quyidagi tadbirlar ishlab chiqiladi:

--iqtidorli shahslar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan turli tadbirlarni amalga oshirish;

--«Kamolot», «Mahalla», «Ulug'bek» , «Oltin meros», «Umid» , «Ustoz» kabi jamg'armalar bilan hamkorlikda ish olib borish;

--o'quv bilim yurtlaridan tashqari Ta'lim muassasalarida yoshlar iste'dodi va iqtidorini namoyon qilishga doir shart sharoitlar yaratib berish;

--ularning qiziqishini inobatga olgan holda fanlar buyicha olimpiadalar, tanlovlar, kurgazmalar, turli bayramlar, o'quvchilar ijodkorligi kabi tadbirlarni o'tkazish.

Respublikaning chekka mintaqalaridan iqtidorli shahslar va iste'dodli yoshlarni izlash, ularga kelgusida uz qobiliyatlarini takomillashtirishlariga shart-sharoitlar yaratib berish kerak.

¹ O.Собиров “Талаба ёшларда худудий маданиятни шакллантириш услубиёти” Т., 2005. (Б.М.И.)

***Ta'lim – tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni
namunali o'tkazish.***

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtimizda ko'plab bayramlar nishonlana boshlandi. Ular o'z mazmunicha halqimizning azaliy an'analarini, urf – odatlarini va orzu umidlarini olgan bo'lib, ommaviy tarzda muntazam nishonlanib kelyapti. Albatta, bu bayramlar kishilarga zavqu shavq bag'ishlash barobarida, yoshlarda vatanparvarlik, an'analarimizga sadoqat, urf – odatlarimizga hurmat hissini shakllantirishda muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Ushbu darslar o'quvchilar qalbida iymon – e'tiqod hissini munavvar etib, ona – Vatan, halqiga mehir muhabbat uyg'otish zarur. SHu bois avvalo dars mavzusini to'g'ri tanlab olish, o'quvchining bilimdarajasi, malaka va ko'nikmalariga mos ravishda aniq belgilay bilishi lozim. Dars o'tiladigan hona ham mavzuga mos ravishda bezatilgan bo'lishi lozim. YA'ni qanday bayram o'tkazilishga qarab O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi, Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, Mutafakkir olimlarning ibratli so'zlaridan namunalar keltirish mumkin va hako'zolar.

Saboqlar suhbat, savol–javob, bahs–munozara, hikoya shakllarida sahnalashtirilgan lavhalar yordamida tashkil etilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday bayram tadbirlariga eng asosiylaridan misol tariqasida aytib o'tishimiz muki bo'lganlari "Mustaqillik – buyuk ne'mat" umumhalq bayrami – "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", " 9 may – Hotira va Qadrlash kuni", "Navro'z – gul bayrami" kabilardir.

Ushbu bayramlarni tashkil etishda Milliy dastur talablariga muvofiq vujudga kelayotgan akademik litsey va kasb–hunar kollejlari, ayniqsa, behad ko'tarinki ruhda alohida mahorat va izlanuvchanlikni talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida, akademik-litsey, kasb-hunar kollejlari, o'quv yurtlarida, mahallalarda, korhonalarda "1-oktyabr—O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazish o'sib kelaetgan yosh avlodni tarbiyalashda halqimizning ustoz murabbiyga bo'lgan munosabatlarining eng yahshi namunalari misolida

o'quvchi yoshlar, umuman insonlar dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Bayram tantanalariga ota-onalar, mahalla faollari, halq ta'limi hodimlari, yozuvchi, shoirlar, san'at ashli, homiy tashkilotlar, fahriy o'qituvchilar, "Umid", "Kamolot", "Ulug'bek", "Mahalla" "Nuroniy", "Ustoz" "Oltin meros" kabi jamg'armalar, ommaviy ahborot vositalari vakillarini jalb etish kerak.

Bayram doirasida dars, tarbiyaviy soat, seminar-adabiyot, adabiy-badiiy va ilmiy kechalar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilishi mumkin.

Bayram tantanalari "O'qituvchi—ulug' nom, u Mag'pyp jaranglaydi", "Ustoz—otangdan ulug'", "Ustoz va murabbiylar, sizlarni sharaflaymiz", "Men sevgan ustoz", "Agar hayot bo'ston bo'lsa, bog'bon muallim", "Ustozlar kuni — umumhalq bayramidir" kabi mavzularda o'tkazilishi mumkin.

Shuningdek, yosh musavvirlar, yosh hunarmandlar yosh raqqosalar, yosh chevarlar ko'rik-tanlovlarini, yosh polvonlar, yosh sportchilar, o'tkir zehnlilar, topqirlar musobaqalarini, she'rhonlik va mushoiralarni o'tkazish lozim.

Ustoz va murabbiylar bayramini nishonlashda o'tganlar ruhini shod etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

"O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayramini quydagicha reja asosida o'tkazish mumkin:

— 1 oktyabr — "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayrami — dam olish kuni ekanligi;

—o'qituvchi—ulug' zot ekanligi haqida;

—ustoz—otangdan ulug'ligi;

—o'qituvchi va murabbiylar mehnatining qadr-qiymati haqida;

—buyuk ustozlar haqida O'qituvchilar sulolasi haqida;

—ustozlar ruhini shod etish;

—o'qituvchilarni munosib taqdirlash, sovg'alar ulashish;

—rivoyat, hikoyalar, she'r va kuy-qo'shiqlar ijro etish;

—sahna lavhalaridan, sport o'yinlaridan namoyish etish;

—san'atkorlar chiqishi;

—sayl-sayohatga borish;

—nafaqaho'r, fahriy o'qituvchilar holidan habar olish;

—ko'rgazma tashkil etish, kimoshdi savdosini uyushtirish.

Bayramni ikki bosqichli tadbir asosida o'tkazish ham mumkin.

Birinchisi — ma'rifiy, ma'naviy tadbirlar bo'lsa, ikkinchisi, ko'ngil ochar, estetik zavq-shavq olishga bag'ishlangan o'yin-kulgi, tomoshali tadbirlardir. Sayohat va sayllarda, muzey va muqaddas qadamjoylarga, "Hotira va Qadrlash" maydonlariga borish.

O'quv yurtlarida "O'qituvchi va murabbiylar" bayrami teatrlashtirilgan reja asosida olib borilishi bayramning estetik tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi. Buning uchun, o'quv yurtlarining havaskorlik drama teatri a'zolari, musiqa va cholg'u asboblari to'garaklarining ishtirokchilari bilan teatrlashtirilgan badiiy qismlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Toshkent, Buhoro, Samarqand, Farg'ona, SHahrisabz, Termiz, Hiva shaharlariga o'qituvchilar sayohatini uyushtirish. Bu ishlarda halq ta'limi bo'limi, hokimiyat, mahalla, homiy tashkilotlar, san'at va adabiyot ahli hamkorlikda faollik ko'rsatishlari lozim.

Tomoshalar, kontsertlar, Musiqali kechalar va lektoriylarga ustozu yosh murabbiylar va o'quvchilarning bepul kirishini ta'minlash, shuningdek, ijodkor hodimlar guruhlarini ta'lim-tarbiya muassasalariga tashrif buyurishlari lozim. "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazishni Respublika, viloyat, shahar, tuman ommaviy ahborot vositalari orqali yoritish maqsadga muvofiqdir. Bayram o'tkaziladigan joyni bezashda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

—"O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazish uchun, avvalo, sahna mavzuga mos qilib, did bilan bezatilishi — o'qituvchi ustoz haqida Hadisu Sharif, Qur'oni Karim, Yusuf Hos Hojyb, A.Jomiy, A.Navoiy, A.Avloniy, Usmon Nosir, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov so'zlaridan namunalar bitilib, shior qilib osib ko'yilishi;

—Davlat Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi o'rniga tug'ri joylashtirilishi;

—"Qur'oni Karim", "Hadisu SHarif", "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Mahbub ulqulub", "Muhokamatul lug'atayn", "Odobnoma", "Turkiy guliston yohud ahloq", "Alifbe", "Ustoz-muallim", "Odob saboqlari" va boshqa qadimiy hamda zamonaviy darslik va ko'llanmalardan namunalar qo'yilishi;

—fidoyi o'qituvchilar suratlari, eng yahshi dars va darsdan tashqari ma'naviy tarbiya ishlari bayonidan lavhalar, shuningdek, devoriy gazetalarning bayram sonlari ko'rgazma sifatida namoyish etilishi;

—O'zbekistonda "Davlat tili", "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", "Davlat Mustaqilligi to'g'risida"gi Davlat Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z aksini topishi;

—katta zalda dasturhon bayramona nozu-ne'matlar bilan tuzalishi, o'rindiqlar hozirlanishi;

—bayramga mahalla oqsoqollari, fahriy o'qituvchilar-murabbiylar, halq ta'limi, tuman, shahar hokimiyati, hayriya jamg'armalari, homiy tashkilotlar va matbuot hodimlari vakillari, yozuvchilar, san'atkorlar taklif etilishi;

—ota-onalar, a'lochi o'quvchilar ham ishtirok etishlari;

—bayram zarur texnik va musiqiy asbob-uskunalar, boshlovchi, badiiy havaskorlar bilan ta'minlanishi, azaliy o'zbekona udumga binoan shodiyona karnay-surnay sadolari bilan boshlanishi lozim.

Quyida bayram tantanalarini o'tadigan joyni bezatishda foydalanish uchun buyuk allomalarning ustoz va murabbiylar haqidagi fikr va mulohazalaridan namunalarni ilova qilamiz:

1. O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,

Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.

(Yusuf Hos Hojib)

2. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

(A. Navoiy)

3. Jahonda bo'lmasa muallim agar

Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

(A. Jomiy)

4. Ustoz, muallimsiz qolganda zamon,

Nodonlikdan bulurdi qora jahon.

A. Jomiy

5. Ustozlar—aziz yurtning eng aziz, eng ulug' va mo''tabar kishilaridandir.

I.A. Karimov

6. Hayot yo'lida birinchi masala — maktab masalasidir.

Abdurauf Fitrat

7. Ustoz yo'li porloqdir, ustoz yo'li porloqdir,

Ustoz ko'ngli hazina, sahovatga to'likdir.

P. Mumin

3. Inson chindan ham shu ulug' nomga sazovar bo'lsa, u o'z qadriga etish bilan birga o'zgalar qadrini ham baland tutib, odamiylik burchini to'g'ri ado etadi. Ana shu insoniylik burchlaridan biri o'tganlar ruhini shod etib, ular hotirasi, qadr – qimmatini o'z joyiga qo'yishdir.

“Vatanimiz mustaqilligi uchun jonini, bor kuch – quvvatini ayamagan biror bir kishi unutmasligi kerak. Ularning har biriga munosib hurmat – ehtirom ko'rsatilishi shart”, - deb ta'kidladi. Prezident I.Karimov.²

O'zbek diyori o'zining fidoiy, vatanparvar, har qanday yovuz kuchlarni engaladigan, o'z onasi, rafiqasi, opa – singillari – yu, aka – ukalarini hor qilib qo'yishdek pastkashlikni o'ziga or deb biladigan jasur o'g'lonlari bilan g'ururlana oladi. Fikrimizning dalili sifatida ikkinchi jahon urushidagi fidoyilarni olishimiz, ular Bilan haqli ravishda fahrlanishimiz mumkin. Ikkinchi jahon urushi butun qardosh respublikalar qatori O'zbekiston aholisi uchun ham og'ir kulfatlarni keltirdi. o'zbek elidan ko'plab o'g'lonlar borib, begona erlarda qolib ketdi.

² И.А.Каримов “Хотира ва қадрлаш муқаддас маънавий туйғу”, 1999 й

Afsuski, urush qatnashchilari – hozirgi kunda hayot bo'lganlari kundan – kunga kamayib bormoqda. Bugungi kunda respublikamizda 109 ming urush qatnashchisi, 159 ming urush orqasida mehnat qilgan kishilar bor.

Respublikamiz Prezidentining “9 may – Hotira va Qadrlash kuni” deb e'lon qilish haqidagi Farmoni zaminida ushbu kunlarimiz nafasi barq urib turibdi. Hotira, qadrlash bu kishi qalbi uyg'oqligining, o'sha qalb toza va pokligining timsolidir.

Hayot bor ekan, demak tug'ilish bor, o'lish bor. O'tganlarning hotirasini abadiylashtirish, ularning chirog'ini doimo yoqib turish nafaqat o'sha ormizda yo'q kimsalarning izzatini joyiga qo'yishni, balki kishining o'z – o'ziga bo'lgan qadr – qimmatini ham anglatadi.

Ushbu bayramni umumhalq bayrami sifatida nishonlash bu istiqlol hadya etgan in'omlardan biri ekanligini va bu kunning mazmunli, ko'tarinki ruhda o'tkazilishiga erishmoq lozim.

Akdemik litseylar, kasb – hunar kollejlari, bilim yurtidagi o'quvchilarga jangohlarda “Vatan, Vatan, Vatan, ona, ona, ona” - deb jon berganlar ko'p bo'lganidek, “Fevral voqealari”dek “Vatan”ni, “Ona”ni sariq chaqaga almashtiruvchi “Vatanfurush” bo'lib olmaslikni tushuntirish lozim.

Shuningdek, 9 may «Hotira va Qadrlash kuni” ni umumhalq bayramini o'tkazishda quydagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

- “Hotira va Qadrlash kuni” umumhalq bayramini O'tkazuvchi mahsus komissiya tuzish, tadbirlar ishlab chiqish;
- “Hotira – qalb chirog'i”, “Inson buyuk zot, uni qadrlash oliy hikmat” kabi mazularda mahsus darslar, turli – tuman kechalar, davra suhbatlari, savol – javob, bahslar va tarbiyaviy soatlar o'tkazish;
- «Osmonimiz musaffo, erimiz tinch bo'lsin”, “YUrtimiz husni jamoliga ko'z tegmasin”, “Toshkent – tinchlik shahri”, “O'tganlar hotirasi, tariklar farovonligidir”, “Hotira va Qadrlash - burchimiz” kabi mavzularda sherhonlik tanlovini o'tkazish;

- Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bilan uchrashuv o'tkazish, ularning honodonlariga borish, ularni tabriklash, ularga ma'naviy va amaliy yordam berish;
- “Hotira va Qadrlash” kuniga bag'ishlab adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish.

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006 yil 25 avgustda "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" qabul qilgan Qarori shunday boshlanadi: "Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, halqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqbolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda". Mazkur qarorning Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash to'g'risidagi jumla bilan boshlanishi o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashga naqadar katta e'tibor berishimiz zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati ham Prezident qarorida aniq ko'rsatib berilgan. Qarorning Respublika ma'naviyat targ'ibot markazining asosiy vazifalariga bag'ishlangan qismida, jumladan, "aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rnini va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;" kerakligi aytiladi.

«Darsdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari» yoshlar ta'lim-tarbiyasini yanada takomillashtirishga, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda aniq yo'nalishlarni belgilab beradi. U zamon talablari asosida tashkil etiladi. Bu borada pedagogik hodimlarning javobgarligi ham oshiriladi. Ushbu talablar asosida guruhdan va ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limning istiqbol, rejalarini, tadbirlarini ishlab chiqish mumkin.

Hayot bor ekan, demak tug'ilish bor, o'lish bor. O'tganlarning hotirasini abadiylashtirish, ularning chirog'ini doimo yoqib turish nafaqat o'sha ormidagi yo'q kimsalarning izzatini joyiga qo'yishni, balki kishining o'z – o'ziga bo'lgan qadr – qimmatini ham anglatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tadbirlar o'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarga qarab ijodkorlik bilan o'tkazish tavsiya etiladi.

“Hotira va Qadrlash kuni”da nafaqat ikkinchi jahon urushi qatnashchilari balki qatog’on yillarida nohaq ayblangan, qamoqhonalarda hamda mustabid tuzum davridagi afg’on urushida halok bo’lganlarni eslash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimov I.A. Adolat, Vatan va halq manfaati har narsadan ulug'. - T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekistan taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan Qolsin. T. 2. -T.: O'zbekiston, 1994.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. - T.: O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I.A. (Islom Karimov.O'zbek halqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13-T.: "O'zbekiston", 2005.244-bet)
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. - T.: O'zbekiston, 2000. 528 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996.
9. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 80 b.
10. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonuni qqBarkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997.
11. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qqBarkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. – 31-60-b.
12. Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida halq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish qqO'qit.uchun.qo'll. – Chimkent, Jan.KozMITI, 1993. – 90 b.
13. Babilaev A.N. Natsionalnaya psihologiya kak yavlenie obxestvennoy jizni: Avtoref. diss. ... kand.ped.nauk. – M.: 1991. – 21 s.
14. Bahranov Sh. Shaxs milliy o'zligini anglash qonuniyatlari. – Samarqand: Zarafshon, 1995. – 136 b.

15. Gappirov B.T. O'quvchilarda ahloqiy o'z-o'zini anglashning o'quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti: Psih.fanl.nomz. ... diss. – T.: 1993. – 133 b.
16. Jo'raev N. Uyg'oq nigoh. - T.: O'zbekiston, 1995. - 152 b.
17. Jo'raev N. Yuksalish. - T.: O'zbekiston, 1995. - 152 b.
18. Jo'raev N. O'zligingni anglash mavridi. - T.: O'zbekiston, 1990. - 126 b.
19. Ibrohimov A., Sultonov H., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996. – 397 b.
20. Karimova V.M. Milliy istiqlol g'oyasini ta'lim jarayoniga joriy etishning pedagogik hamda psihologik asoslari. – T.: O'AJBNT, 2002. – 26 b.
21. Kurbanov Sh.E., Seythalilov E. Vliyanie Natsionalnoy programmo' po podgotovke kadrov na razvitie obxestva i formirovanie lichnosti qucheb. posobie. – T.: Akad.gos. i obx. stroit., 1999. – 100 s.
22. Kurbanov Sh.E., Seythalilov E. Natsionalnaya programma po podgotovke kadrov: osnova dostijeniya strategicheskoy tseli. – M.: GEOTAR, 2000. – 136 s.
23. Mamatqulova R. Milliy ma'naviy meros asosida universitet o'quvchilarida hulq-odob fazilatlarini tarbiyalash: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 1995. – 220 b.
24. Mahmutova G.I. Oliy pedagogik ta'lim tizimida o'quvchilarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy pedagogik hususiyatlari: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2004. – 179 b.
25. Musurmonova O. Ma'naviyat qadriyatlar va o'quvchilar tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996.
26. Musurmonova O. Oila ma'naviyati va milliy g'urur.. – T.: Fan, 1996.
27. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shahsini ahloqiy shakllantirish: Ped.fanl.dokt. ... diss. – T.: 2000. – 305 b.
28. Otamurodova R. O'quvchi-o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi qqHalq ta'limi j., 2000. 6-son. – 26-28 b.
29. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. 8-b.

30. Sharifho'jaev M. Iftihor. - T.: O'zbekiston, 1993.
31. Qosimov U.A. Komil insonning ijtimoiy-psihologik hususiyatlari: Psih.fanl.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2004. – 24 b.
32. Qosimova Z.H. O'quvchi o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (Oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2004. – 208 b.
33. Qurboniyozova Z.K. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari (qoraqalpoq maktablarining VII-IX sinflari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2002. – 21 b.
34. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped.fanl.dokt. ... diss. - T.: 1998. - 316 b.
35. G'oziev E. Psihologiya: O'quvchi davrlari psihologiyasi (Ped. ins-tlari va uni-tlari uchun o'quv qo'll. – T.: O'qituvchi, 1994. – 224 b.
36. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. P.I.Ruvinskiy. – T. 1991 y.
37. Tarbiyaviy ishlar metodikasidagi ko'rsatmalar. Baubekova Z.D. – T. 1991 y.
38. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma) – Toshkent – 2000. J.G'.Yo'ldoshev.
39. Tarbiya nazariyasi. N. Ho'jaev va boshqalar. – Toshkent – 2003.
40. Bolalarni tarbiyalashda va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Abdullaev. D.I., Ishmuhammedov R.J. – Toshkent – 2002.
41. «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mihenko, E.N.Shiyanov. Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004
42. Voljskiy A. Metodika vospitatelnoy raboti s molodejyu. – M. 2003.
- Kotov V. Vospitatelnaya rabota v shkole: opo't i problemi. – SPb: Sev.siyanie 2003.
- e – mail: sales @ piter. ru
- e – mail: piter – t @ lincom. kharko. ua